Uskenbaeva Dilnoza Voxodir qizi	
Факторы повышения эффективности управления в государственном секторе.....	1043
Махмудова Севара Улугбековна	
Soliq organlari va soliq to'lovchilar o'rtasidagi munosabatlarning yangi tizimi sharoitida soliq nazorati	1048
Rajabbaeva Dildora Zakirovna, Aripova Aziza Alisherovna	
Boshqaruv jarayonlarini tashkil etishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	1053
Jo'rayeva Niginaxonim Xursand qizi	
Jahonda eksportni qo'llab-quvvatlash amaliyoti.....	1057
Xudoynazarov Sherzod Ismoilovich	
Raqamli moliyaviy texnologiyalarni korxonada darajasida joriy etish orqali moliyaviy barqarorlikka erishish strategiyasi	1063
Soibov Nozimbek Faxridin o'g'li	
Применение методов PMBOK в управлении рисками проектов	1070
Гулираъно Носирова Абдулазиз қизи	
Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda aholi farovonligining o'rni va ahamiyati	1073
Bobaev Isroiljon Abdinabievich	
Вопросы инновационных инвестиций в контексте международной экономической интеграции	1078
Шарипов Бахтиёр Михлибаевич	
Yashil iqtisodiyotga o'tishning nazariy va amaliy jihatlari hamda tendensiyalari.....	1083
Samiyev Abdurashid Qaxramonovich, Shermuxammedov Begzodjon Usmonovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlar samaradorligini ta'minlash yo'llari.....	1087
Nazarov Qilich Xolmuradovich	
Improving the organizational and economic mechanisms for the development of tourism in the republic of karakalpakstan	1092
Tleumuratov Baxadir Genjemuratovich	
O'zbekistonda tumanlar barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash yo'llari (Surxondaryo viloyati misolida).....	1097
Qosimova Nodira Saidovna	
Innovatsion iqtisodiyotni shakllantirishning asosi sifatida innovatsiyalar.....	1102
Azizova Maliha Farrux qizi	



Влияние инвестиций на инновационное развитие и повышение конкурентоспособности экономики узбекистана	1106
Максудова Шахзода	
Возможности снижения затрат на логистику за счет цифровых технологий.....	1112
Олимова Бахора Шухратовна	
Yashil texnologiyalar va ularning iqtisodiy tizimga ta'siri.....	1116
Sultonov Omon Juma o'g'li	
Iqtisodiy o'sishning makroiqtisodiy faktorlari va ularning ta'siri	1121
Zuvaydullaev Nematullo Oybek o'g'li	
Роль управления производством в условиях модернизации экономики.....	1125
Гулов Мухтор Очилович	
Iqtisodiyotni raqamlashtirish sharoitida sun'iy intellekt texnologiyalarining o'rni va ahamiyati	1129
To'rayev Shavkat Shuxratovich	
Роль цифрового маркетинга в продвижении туристических направлений.....	1136
Муродова Наргиза Уткировна	
Развитие финансовых рынков в странах снг: проблемы и перспективы.....	1140
Рузиев Зафар Икрамович, Каримов Ислон Ураз угли	
Современные инструменты продвижения бренда в условиях цифровой экономики.....	1145
Темирова Феруза Сагдуллаевна	
"Raqamli asrda axborot xavfsizligi: it texnologiyalar bilan xavfsizlikni ta'minlash yo'llari"	1149
Sherzod Rajabov	
Государственное регулирование инвестиционной деятельности: проблемы и направления совершенствования.....	1152
Шухрат Турсунов, Икромов Хасан Зафарович	
Economic incentives and barriers to sustainable transition in agribusiness: a comparative study of organic and conventional farming systems	1157
Mubina Toirova	
Цифровая трансформация банковской системы узбекистана: анализ внедрения fintech-решений в государственных банках	1162
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Ta'lim muassasalaridagi ba'zi jihatlar	1167
A'zam Qutbiddin A'zam-zoda	
Klasterlar hisob siyosatida boshqaruv hisobining metodologik asoslari.....	1173
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Egri soliqlarning mohiyati, genezisi va rivojlanish tendensiyalariga oid nazariy munozaralar xususida	1179
Shodiyev Olimjon Abduraxmonovich	
Ekologik mehmonhona faoliyatini rejalashtirish maqsadlari va vazifalari	1186
Abidova Dilfuza Igamberdievna	
Investitsiya loyihalarining iqtisodiy va moliyaviy samaradorligini oshirish istiqbollari.....	1200
Jo'rabekova Xumora Muzaffar qizi, Saidov Rasul Boltabayevich	
O'zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarini moliyalashtirish manbalarining tahlili.....	1204
Aliyev Arslon Salom o'g'li	
O'zbekistonda turizm sohasining iqtisodiy ko'rsatkichlarini statistik tahlil qilish.....	1213
Jumanova Zilola Tuychiyevna	
Xorijiy davlatlarda boylik solig'i va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.....	1219
Ruziyev G'anisher Usarovich	
Yer fondi va undan samarali foydalanishning nazariy asoslari (Samarqand viloyati misolida).....	1225
Xoshimova Sevara Baxromovna	
Iqtisodiy-ekologik tizimlarni boshqarishga ta'sir etuvchi omillarning ilmiy asoslari	1229
Kuldoshev Asliddin Tursunovich	
Влияние финтех-услуг на финансовую инклюзию в сельских регионах узбекистана.....	1236
Абдурахимова Дилора Каримовна	
Surxondaryo viloyati sanoat sohasining asosiy ko'rsatkichlari tahlili.....	1240
Kuvanchiyeva Mehriniso Davlyatgeldi qizi	
A critical evaluation of strategic management's role in promoting sustainable development in Uzbekistan	1245
Ismatova Mahliyo	



O'zbekistonda turizm xizmatlari eksportini oshirishda zamonaviy infratuzilma va texnologiyalarning integratsiyasi.....	1251
Akmal Bakhromov	
Trends and reforms of corporate governance in state-owned enterprises.....	1257
F.Djalilov	
Переоценка долгосрочных активов в нефтегазовой промышленности и определение финансового результата от переоценки.....	1269
Махкамова Саида Гайратова	
Oziq-ovqat mahsulotlari korxonalarini integratsiyalashuv jarayonlarini boshqarish samaradorligini oshirish.....	1275
Xojiev Ibroxim Ikramovich	
Sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini ta'minlashning muhim shartlari.....	1280
Allanazarova B.K.	
P2P lending and crowdfunding as alternative sources of financing for small business in Uzbekistan.....	1286
Abdurakhimova Dilara Karimovna	
O'zbekistonda soliq nazoratining huquqiy va tashkiliy asoslarini takomillashtirish yo'llari.....	1290
Kuziyeva Nargiza Ramazanovna, Oymatova Gulnur Mirjamolovna	
Applications of hyperbolic geometry in physics and biology.....	1295
Khaknazarova Khurshidabonu Kenjaevna, Otakulova Rukhshona Akram kizi	
O'zbekiston temir yo'llari tizimining transformatsiyasi: modernizatsiya, raqamlashtirish va qayta tuzilish yo'nalishlari.....	1301
Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich	
The role of tourist product diversification in sustainable tourism development.....	1305
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich, Alimova Mashhura Toirxonovna	
Temiryo'l transporti turi tavsifi.....	1310
Shodmonbekova Nodira Kamoljon qizi	
Namangan viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirish istiqbollari: Hududiy raqobatbardoshlik va innovatsion yondashuvlar.....	1314
Khusniddin Egamnazarov	
Kiberxavfsizlik: it infratuzilmasini himoya qilishning zamonaviy usullari.....	1321
D. Sh. Usmanbayev	
Mahalliy budjetlar daromad bazasini tahlili.....	1325
Qurbonov Nuriddin Ro'ziqulovich	
Развитие цифровых финансовых услуги в банковской системе Республики Узбекистан.....	1333
Абдурахманова Матлуба Махамдаминовна	
Avariya rejimlarida kichik yuklamali elektr ta'minoti tizimlarining kabel izolyatsiyasi monitoringini avtomatlashtirishning zamonaviy yondashuvlari.....	1339
Mirzoyev Narzulla Nuriddinovich, Mamatqulov Toyir Chorshanbiyevich	
Analysis of increasing the speed of information exchange between the control interface and execution mechanisms in emergency mode in intelligent systems.....	1346
Azizbek Yusupbekov Nodirbekovich, Husniddin Esonov Mamarasul o'g'lu Assistant	
Sa'noat korxonalari va mexatron robotlarni optimal avtomatlashtirish va boshqarishda sun'iy intellektning ahamiyati.....	1351
Karabayev Ibragim Turdiyevich, Esonov Husniddin Mamarasul o'g'li, Abdullayeva Saodat Mengbayevna, Mamatqulov Toir Chorshanbiyevich	
Korxonaning moliyaviy holatini baholashda zamonaviy tahlil uslublarining qo'llanilishi.....	1355
Usmanova Nasiba Akbarjonovna, Suleymanova Asel Armanovna	
Xizmat ko'satish sohasida xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va raqamli texnologiyalarning ahamiyati.....	1360
Mirzayeva Shirin Nodirovna	
Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi.....	1365
Shaymanova Nigora Yusupovna	




REKREATSIYA TURIZMI VA SOG'LOMLASHTIRISH XIZMATLARI INTEGRATSIYASI

Shaymanova Nigora Yusupovna

TDIU "Turizm va mehmonxona biznesi" kafedrasida assistenti

n.shaymanova@tsue.uz

ORCID: 0009-0006-4461-0144



Annotatsiya: Ushbu maqolada rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasining 2024-yildagi global va O'zbekiston kontekstidagi rivojlanish yo'nalishlari tahlil qilingan. Dunyo bo'yicha wellness turizmining iqtisodiy ko'rsatkichlari, xususan, AQSH, Germaniya, Turkiya, Hindiston va Shveysariya kabi davlatlar tajribasi orqali sog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi turizm xizmatlarining istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasidagi mavjud sanatoriy-kurort infratuzilmasining holati, mavjud muammolari va raqamli rivojlanish imkoniyatlari raqamli manbalar asosida ko'rib chiqilgan. Wellness turizmi orqali iqtisodiy diversifikatsiya, zamonaviy xizmat turlari (SPA, detoks, yoga, psixologik sog'lomlashtirish) hamda sog'liqni saqlash va turizm sohalari o'rtasida barqaror integratsiyaga erishish imkoniyatlari tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: rekreatsiya turizmi, rekreatsiya xizmatlari, xorijiy investitsiyalar, wellness turizmi, xalqaro wellness standartlari.

Abstract: This article analyzes the development trends of the integration of recreational tourism and health services in the global and Uzbek contexts in 2024. Economic indicators of health tourism in the world, in particular, the prospects for tourism services that promote a healthy lifestyle, are highlighted using the example of countries such as the USA, Germany, Turkey, India and Switzerland. Also, based on digital sources, the state of the existing health resort infrastructure in the Republic of Uzbekistan, its current problems and opportunities for digital development are considered. The possibilities of achieving economic diversification through health tourism, modern types of services (SPA, detox, yoga, psychological wellness), sustainable integration between the healthcare and tourism sectors are analyzed.

Key words: recreational tourism, recreational services, foreign investment, health tourism, international health standards.

Аннотация: В данной статье анализируются тенденции развития интеграции рекреационного туризма и оздоровительных услуг в глобальном и узбекском контекстах в 2024 году. Экономические показатели оздоровительного туризма в мире, в частности, перспективы туристических услуг, способствующих здоровому образу жизни, освещаются на примере таких стран, как США, Германия, Турция, Индия и Швейцария. Также на основе цифровых источников рассматривается состояние существующей санаторно-курортной инфраструктуры в Республике Узбекистан, ее текущие проблемы и возможности цифрового развития. Анализируются возможности достижения экономической диверсификации за счет оздоровительного туризма, современных видов услуг (SPA, детокс, йога, психологическое оздоровление), устойчивой интеграции между секторами здравоохранения и туризма.

Ключевые слова: рекреационный туризм, рекреационные услуги, иностранные инвестиции, оздоровительный туризм, международные стандарты оздоровления.

KIRISH

2024-yilda global wellness iqtisodiyoti 6,8 trillion AQSH dollariga yetdi va 2028-yilga kelib bu ko'rsatkich 9 trillion dollarga yetishi prognoz qilinmoqda. Wellness turizmi esa 2024-yilda 1 trillion dollarlik bozorga aylandi. O'zbekiston ham bu tendentsiyadan chetda emas: 2024-yilda mamlakatga 10,2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi, ularning aksariyati sog'lomlashtirish va rekreatsiya xizmatlariga qiziqish bildirmoqda.

2024-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda 590 ga yaqin sanatoriy, dam olish uylari, pansionatlar va oromgohlar faoliyat yuritmoqda. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yilda sanatoriy-kurort muassasalarida



joylashtirilgan shaxslar soni 887,4 ming nafarni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 36% o'sishni ko'rsatadi.

Dunyo bo'ylab wellness turizmi 2024-yilda 1 trillion AQSH dollariga yetdi. Wellness sayohatchilari odatiy sayyohlarga qaraganda 41% ko'proq xarajat qiladilar. Masalan, xalqaro wellness sayohatchisi o'rtacha 1 764 dollar sarflaydi, bu esa odatiy xalqaro sayyohga nisbatan 41% ko'pdir.

2024-yilgi global statistika wellness turizmi bozori hajmi va yillik o'sish sur'atlari bo'yicha yetakchi davlatlar tajribasini ochib beradi. Xususan, AQSH wellness turizmi bo'yicha eng yirik bozor hisoblanib, bu yo'nalishdagi umumiy daromad 256 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu global bozorning 24 foiziga teng. Wellness xizmatlari sohasi Germaniyada ham jadal rivojlanmoqda: bu mamlakatda 2024-yil yakunlariga ko'ra bozor hajmi 70,2 milliard dollarga yetib, yiliga 50 foiz o'sish kuzatildi.

Fransiyada wellness turizmi 35,5 milliard dollarga yetib, 36 foizlik o'sishga erishilgan. Avstriyada bu ko'rsatkich 19,5 milliard dollar bo'lib, yillik o'sish 28 foizni tashkil etdi. Shveysariyada esa wellness xizmatlari sohasida 17,7 milliard dollar miqdorida daromad qayd etilgan bo'lib, bu 37 foizlik o'sishni anglatadi.

Mazkur davlatlar wellness turizmini rivojlantirishda quyidagi omillar orqali muvaffaqiyatga erishgan:

- yuqori sifatli tibbiy va dam olish xizmatlari,
- ekologik jihatdan toza hududlar va tabiiy resurslardan foydalanish,
- innovatsion infratuzilmalarni rivojlantirish (raqamli xizmatlar, onlayn tahlil va buyurtma tizimlari),
- hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan strategik rejalashtirish.

Ushbu tajribalar O'zbekiston uchun ham muhim yo'l-yo'riq bo'lib xizmat qilishi mumkin, ayniqsa sog'lomlashtirish infratuzilmasini zamonaviylashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish yo'nalishida foydalanish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqolada rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi bo'yicha O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlil qilinib, muammolar va imkoniyatlar aniqlashga qaratilgan. Wellness turizmini rivojlantirishda muvaffaqiyatli bo'lgan davlatlar – AQSH, Germaniya, Turkiya, Hindiston va Shveysariya tajribalari O'zbekiston sharoiti bilan taqqoslab o'rganildi. Bu orqali xalqaro amaliyot asosida milliy imkoniyatlar va farqli jihatlar aniqlab chiqildi. Xalqaro ilmiy maqolalar, tahliliy hisobotlar va statistika bazalari asosida rekreatsiya va sog'lomlashtirish xizmatlariga oid asosiy konseptlar (wellness tourism, spa services, medical travel, health cluster) tahlil qilindi. Jumladan, 10 dan ortiq xalqaro nashrlar (Forbes, Statista, GWI, UNWTO) va mahalliy ilmiy maqolalar ko'rib chiqildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rekreatsiya turizmi va sog'lomlashtirish xizmatlari integratsiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar bu sohaning strategik va iqtisodiy salohiyatini keng yoritgan. Jumladan, Cohen va Eyston (2020) wellness turizmini "sog'lom hayot falsafasiga asoslangan kompleks xizmatlar tizimi" deb ta'riflab, u rekreatsiya, tibbiyot, psixologiya va ijtimoiy aloqalarning o'zaro uyg'unlashgan sohasi ekanligini ta'kidlaydi. Ular ta'kidlashicha, wellness turizmga sarmoya kiritgan davlatlarda aholi salomatligi bilan birga, turizm daromadlari ham o'sib bormoqda (Cohen & Eyston, 2020).

Smith va Puczkó (2014) esa rekreatsiya va sog'lomlashtirish xizmatlarining birgalikda rivojlanishini barqaror turizmning ajralmas qismi deb baholaydi. Ularning fikricha, sanatoriylar, SPA va reabilitatsion markazlar – nafaqat sog'lomlashtirish, balki hududiy iqtisodiy faollikni oshiruvchi vosita hisoblanadi (Smith & Puczkó, 2014).

O'zbek olimi Turobov A. (2021) o'z tadqiqotida O'zbekistondagi sanatoriy va dam olish maskanlari infratuzilmasini tahlil qilib, ularning salohiyatidan to'liq foydalanilmayotganini ko'rsatgan. U wellness turizmini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, kadrlashtirish va marketingni kuchaytirish zarurligini ta'kidlaydi (Turobov, 2021).

Shuningdek, Abdulkarimov M. (2022) O'zbekistonda wellness turizmi raqamlashtirish orqali rivojlanayotganini va ayniqsa yoshlar orasida psixologik sog'lomlashtirish xizmatlariga talab oshayotganini aniqlagan. U raqamli platformalar, onlayn maslahat va uy sharoitidagi reabilitatsiya xizmatlarining imkoniyatlarini alohida tahlil qilgan (Abdulkarimov, 2022).

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston Respublikasi wellness turizmini milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biri sifatida shakllantirishga intilmoqda. So'nggi yillarda bu yo'nalishda quyidagi asosiy ustuvorliklarga alohida e'tibor qaratilmoqda:



1. Infratuzilmani modernizatsiya qilish bugungi kunda O'zbekistonda wellness turizmini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Bu borada davlat-xususiy sheriklik asosidagi loyihalar orqali zamonaviy SPA markazlari, fitnes zallari, yoga studiyalari hamda psixologik dam olish komplekslari tashkil etilmoqda. Ayniqsa, tabiiy resurslarga ega hududlarda (masalan, Zomin, Shohimardon, Chimyon) joylashgan mavjud sanatoriy va kurortlar bosqichma-bosqich rekonstruksiya qilinib, ularda nafaqat tibbiy-profilaktika xizmatlari, balki stressni kamaytirish, detoksifikatsiya, aromaterapiya, akvaterapiya va meditatsiya asosidagi xizmat turlari ham joriy etilmoqda. Xizmatlar ko'lamining kengaytirilishi va ularning xalqaro mezonlarga moslashtirilishi orqali infratuzilma nafaqat mahalliy aholiga, balki xorijiy sayyohlarga ham jozibadorlik kasb etmoqda.

2. Kadrlar tayyorlash va malakani oshirish O'zbekistonda wellness turizmi rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida qaralmoqda. So'nggi yillarda sog'lomlashtirish xizmatlariga bo'lgan talabning ortishi bu sohada yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash zaruratini yuzaga chiqardi. Shu sababli, 2024-yilda respublika miqosida wellness sohasi uchun menejment, SPA terapevtligi, sog'lom ovqatlanish, fizioterapiya va klinik psixologiya yo'nalishlarida ixtisoslashtirilgan qisqa muddatli sertifikat kurslari faoliyat boshladi.

Mazkur kurslar zamonaviy o'quv dasturlari asosida shakllantirilgan bo'lib, ularning amaliy qismi bevosita sanatoriyalar va tibbiy-wellness markazlarida olib borilmoqda. Shuningdek, xorijiy tajriba almashinuvlari asosida ustoz-shogird tizimi joriy etilgan. Ayniqsa, SPA texnologiyalari, aromaterapiya, meditatsion texnika va sog'lom ovqatlanish bo'yicha dietologiya yo'nalishlarida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash orqali sohaning xalqaro raqobatbardoshligi oshmoqda.

Kelgusida bu tizim oliy ta'lim darajasiga ko'tarilib, wellness menejmenti bo'yicha alohida bakalavriat va magistratura yo'nalishlarini ochish rejalashtirilmoqda.

3. Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish O'zbekiston wellness turizmini global raqobatga tayyorlashda muhim strategik vosita hisoblanadi. 2024-yilda Hilton, Marriott, Radisson, Accor Group, shuningdek, sog'lomlashtirish sohasida yetakchi brend hisoblangan Asclepios Health (Shveytsariya) bilan bir qator hamkorlik va investitsiyaviy kelishuvlar imzolandi. Bu brendlar nafaqat xorijiy sarmoya jalb etmoqda, balki O'zbekistondagi sog'lomlashtirish markazlarining xizmat sifati, sanitariya-epidemiologik standartlari va mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini xalqaro mezonlarga moslashtirishda bevosita yordam bermoqda.

Xalqaro brendlarning kirib kelishi natijasida, ayrim sanatoriy va SPA komplekslarida ISO 17679:2016 (Wellness Spa Services) kabi xalqaro sertifikatlashtirish tizimlari joriy etildi. Bu esa xorijiy sayyohlar ishonchini mustahkamlash bilan birga, xizmat eksportini oshirishga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlar bilan birgalikda wellness marketing kampaniyalari, tajriba almashish dasturlari va mutaxassislar tayyorlash bo'yicha qo'shma loyihalar yo'lga qo'yilgan.

4. Raqamli marketing va raqamlashtirish hozirgi zamonaviy turizm va sog'lomlashtirish xizmatlarini rivojlantirishda ajralmas yo'nalishga aylangan. O'zbekistonda ham 2023–2024 yillarda wellness xizmatlarini raqamlashtirish bo'yicha sezilarli o'zgarishlar yuz berdi. Jumladan, bir nechta sanatoriy va SPA komplekslarida onlayn bron qilish tizimlari, mobil ilovalar orqali xizmatlarga oldindan buyurtma berish, shuningdek, mijozlar reytingi va fikr-mulohazalarini avtomatik yig'ish kabi funksiyalar joriy etildi. Bu esa mijozlarga qulaylik yaratish, xizmat sifati bo'yicha real vaqtda monitoring olib borish hamda tahliliy qarorlar qabul qilish imkonini bermoqda.

Davlat tomonidan ham bu yo'nalishda muhim tashabbus ilgari surilgan: 2024-yil boshida wellness.uz domeni asosida sog'lomlashtirish muassasalari uchun yagona integratsiyalashgan raqamli platforma yaratish loyihasi boshlangan. Bu platforma orqali foydalanuvchilar joylashuv bo'yicha eng yaqin sanatoriylarni topish, ularning narxlarini, xizmat turlari, foydalanuvchi sharhlari va mavjud chegirmalari bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bundan tashqari, Google Maps, TripAdvisor, Booking.com kabi xalqaro platformalar bilan integratsiyani kuchaytirish orqali O'zbekiston sanatoriylari xorijiy sayyohlar oqimini yanada jalb qilishga harakat qilmoqda. Bugungi kunda mamlakatdagi 100 dan ortiq dam olish maskani Booking tizimiga kiritilgan bo'lib, bu raqam 2025-yilga borib ikki baravarga oshirilishi rejalashtirilgan.

Raqamlashtirish orqali marketing samaradorligi ham oshmoqda: wellness markazlari ijtimoiy tarmoqlarda (Instagram, Telegram, Facebook) faol kontent yaratish, kontekstli reklama va videomarketing vositalaridan foydalangan holda bevosita maqsadli auditoriyaga murojaat qilmoqda. Bu esa brend tan olinuvchanligini oshiradi va mijoz bilan aloqa tizimini yaxshilashga xizmat qiladi.

Mazkur yo'nalishlardagi islohotlar O'zbekiston wellness turizmining nafaqat ichki, balki mintaqaviy va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

2024-yilgi statistik tahlillar va amaliy natijalar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekiston wellness turizmi sohasida katta salohiyat va barqaror o'sish imkoniyatlariga ega. Mamlakat tabiiy resurslari – tog' havosi, mineral buloqlar,



shifobaxsh iqlim mintaqalari, mahalliy xalq tabobati tajribalari hamda inson salomatligini tiklovchi psixologik muhitlar ushbu sohani rivojlantirish uchun zarur omillar majmuasini tashkil etadi.

Xalqaro tajribalar shuni tasdiqlamoqdaki, wellness turizmini muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun infratuzilmani chuqur modernizatsiya qilish, xizmat ko'rsatish sifatini xalqaro standartlarga moslashtirish, hamda raqamli texnologiyalarni to'liq joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Germaniya, Hindiston va Turkiya kabi davlatlar tomonidan qo'llanilayotgan wellness strategiyalari – ya'ni SPA, yoga, detoks dasturlari, psixologik reabilitatsiya, stressni kamaytirish texnologiyalari va shifobaxsh ovqatlanish xizmatlarining kombinatsiyasi – O'zbekiston uchun ham amaliy jihatdan moslashtirishga arzigulik tajribalardir.

Bundan tashqari, sog'lomlashtirish yo'nalishida xususiy sektorning faol ishtiroki, xalqaro brendlar bilan investitsiyaviy sherikliklar, kadrlar salohiyatini oshirish va sog'lom turmush tarzini keng targ'ib etuvchi dasturlarni shakllantirish orqali, mamlakatimiz ushbu bozor segmentida nafaqat Markaziy Osiyo, balki keng mintaqaviy miqyosda raqobatbardosh o'rinni egallashi mumkin.

Shu boisdan, wellness turizmini mustahkamlash va uni milliy turizm strategiyasining ajralmas qismiga aylantirish, O'zbekiston uchun iqtisodiy foyda, xalqaro imidj va fuqarolar salomatligini ta'minlash nuqtayi nazaridan juda muhim qadamlardan biri bo'ladi.

- sanatoriy va wellness markazlarini zamonaviylashtirish dasturini ishlab chiqish. Mavjud infratuzilmani rekonstruksiya qilish va yangi wellness markazlarini barpo etish uchun davlat tomonidan alohida investitsion dastur ishlab chiqilishi lozim. Bu dastur xalqaro wellness standartlari (masalan, ISO 17679:2016) asosida sertifikatlash, ekologik tozalikka e'tibor, hamda xizmat turlarini diversifikatsiyalashni o'z ichiga olishi kerak;

- wellness turizmi uchun hududiy ixtisoslashuvni aniqlash. Har bir viloyat yoki tuman tabiiy resurslari (termal buloqlar, tog' iqlimi, sho'r yerlar va boshqalar) asosida ixtisoslashtirilgan sog'lomlashtirish klasterlari tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir;

- wellness xizmatlari bo'yicha milliy o'quv va sertifikatlashtirish tizimini yaratish. SPA terapevtlar, wellness menejerlar, detoks bo'yicha dietologlar, yoga murabbiylari kabi mutaxassislarni yetishtirish uchun qisqa muddatli o'quv kurslari, professional tayyorlov markazlari ochilishi zarur. Shu bilan birga, xalqaro ekspertlar ishtirokida seminar va treninglar yo'lga qo'yilishi kerak;

- xalqaro hamkorlikni yanada chuqurlashtirish. Wellness sohasida ilg'or tajribaga ega xorijiy brendlar bilan qo'shma korxonalar ochish, investitsiya kiritish, texnologiya transferi va xizmatlarni franchayzing asosida rivojlantirish yo'lga qo'yilishi kerak. Shu orqali O'zbekiston wellness xizmatlarini eksport qiluvchi davlatga aylanishi mumkin;

- yagona raqamli platforma yaratish va targ'ibotni kuchaytirish. Wellness xizmatlarini yagona platforma orqali taqdim etish (bron qilish, xizmatlarni solishtirish, sharhlar va baholash), raqamli reklama (Google, TripAdvisor, Booking.com, Instagram) va video-kontentlar orqali xalqaro miqyosda tanitish lozim. Shu maqsadda turizm va IT sohasi vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilishi kerak;

- monitoring va reyting tizimini yo'lga qo'yish. Wellness markazlarining xizmat sifati, mijozlar bahosi va sanitariya-mezonlar asosida muntazam baholab borish uchun ochiq reyting tizimi joriy etilishi lozim. Bu sog'lom raqobat muhitini shakllantiradi va xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. The Global Wellness Economy Monitor 2024. <https://globalwellnessinstitute.org/industry-research/2024-global-wellness-economy-monitor/>
2. Sands, R. (2024, January 16). Global Wellness Tourism Surges Toward The \$1 Trillion Mark. Forbes. <https://www.forbes.com/sites/rogersands/2025/01/16/global-wellness-tourism-surges-toward-the-1-trillion-mark>
3. Wellness Tourism Market Size Worldwide 2019–2024. <https://www.statista.com/statistics/1095133/wellness-tourism-market-size-worldwide>
4. 2024 Travel Trends: Wellness Tourism. <https://discover.hotelbeds.com/resources/insight/2024-travel-trends-wellness-tourism>
5. United Nations World Tourism Organization (UNWTO, 2023). Wellness Tourism and Regional Economic Growth. <https://www.unwto.org>
6. Davlat Statistika Qo'mitasi (2024). 2023-yil yakuni bo'yicha dam olish muassasalari statistikasi. <https://stat.uz/oz/rasmiy-statistika/turizm>
7. Inovatus Journal (2024). Rekreatsiya turizmi sohasida raqamlashtirish va marketing muammolari. EJBOS 2024, No. 2.
8. International Organization for Standardization (ISO, 2023). ISO 17679:2016 - Wellness spa services – Service requirements. <https://www.iso.org/standard/64283.html>
9. Cohen, M., & Eyston, J. (2020). Wellness Tourism: A Global Perspective on Health-Driven Travel. International Journal of Tourism Sciences, 25(2), 134–149.
10. Smith, M., & Puczkó, L. (2014). Health, Tourism and Hospitality: Spas, Wellness and Medical Travel. Routledge.
11. Turobov, A. (2021). O'zbekistonda sanatoriylar infratuzilmasining rivojlanish yo'nalishlari. Turizm va Iqtisodiyot jurnali, 3(1), 22–29.
12. Abdukurimov, M. (2022). Wellness turizmining raqamlashtirishdagi istiqbollari: O'zbekiston tajribasi. Iqtisodiy Tadqiqotlar, 5(4), 41–50.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
